BUXORO XONLIGI VA AMIRLIK DAVRIDA ZARAFSHON VOHASI QORAQALPOQLARI (O‘ZBEK-QORAQALPOQLARI)NING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

O.A.Abdig‘apparov
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Buxoro xonligi hududiga kirib kelgan qoraqalpoqlar va xonlik va shu atrofda yashovchi aholi munosabatlari ko‘p ziddiyatli bo‘lmaganga o‘xshaydi. Sababi, qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi (keyin amirlik) hududlariga kelib joylashishi amirlikining (olinadigan soliqlar hisobiga) foydasiga bo‘lgan. Chunki qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va ular xonlikka zakot, yerdan foydalanganligi uchun esa xiroj va boshqa soliqlar to‘lab turgan.

Kalit so‘zlar: Zarafshon daryosi, Quyi Amudaryo, Orol bo‘ylari va Xiva xonligi, Nurota, G‘ijduvon, Kenemeh bozorlari.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshon vodiysi aholisining etnik tarkibi xilma-xil edi. Bu yerda o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, O‘rta Osiyo eroniylari, arablar, yahudiylar va boshqa elatlar yashar edi. O‘zbeklar aholining asosiy qismini tashkil etardi. Turli elat vakillari yashaydigan Zarafshon vohasi aholisi etnik xususiyatlari, kelib chiqishi, voha bo‘ylab joylashishi hamda yashash tarzi va xo‘jalik mashg‘ulotlari xususida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Zarafshon vohasi bo‘ylab 92 o‘zbek qavmining deyarli barcha urug‘lari istiqomat qilishadi. Bu urug‘larning tumanlar kesimida tarqalishi va urug‘ nomlarining etimologiyasi tahliliga ko‘ra nayman urug‘i o‘n uch tumanda, turkman, xo‘ja va eshonlar to‘qqiz tumanda, mang‘it va xitoy urug‘lari sakkiz tumanda, qipchoq, saroy, bahrin, beklar etnik guruhlari yettita tumanda, ming, barlos, qirq etnik guruhlari oltita tumanda, tuyoqli etnik guruhi beshta tumanda, burqut, arab, qiyot etnik guruhlari to‘rtta tumanda istiqomat qilishadi[1]. Butun voha bo‘ylab joylashgan etnik guruhlar, jumladan qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti va etnomadaniy jarayonlari bilan bog‘liq tadqiqotlar bir-biriga bog‘langan holatda kompleks o‘rganilmagan.

Qoraqalpoqlar Zarafshon vohasiga ko‘chib kelgan vaqtlarida hali urug‘ qabilachilik tuzumida yashaganlar. Ular vohaga dastlab, bir-birlaridan alohida bo‘lib, chorva va dehqonchilik uchun qulay adir va to‘qaylar atrofi bo‘ylab joylashganlar. Zarafshon vohasida bugungi kungacha saqlanib qolgan urug‘lari nomlari bilan ataluvchi aholi mamaskanlarini tahlil qilish ularnin kelib chiqishini o‘rganishda yordamchi manba sifatida muhim hisoblanadi.

Manbalarda ta’kidlanishicha, qoraqalpoq urug‘lari Zarafshon daryosi atroflariga XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XIX asrning 40-yillarigacha ko‘chib kelib joylashgan[2]. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida qoraqalpoqlar dastlab Quyi Amudaryo, Orol bo‘ylari va Xiva xonligi atroflarida yashaganligi, biroq u yerlardan turli xil ijtimoiy va siyosiy omillar tufayli Turkiston,

Chimkent, Toshkent, Chinaz va Jizzaxga orqali Zarafshon daryosi bo‘ylariga kelib joylashganligi eslatiladi. Biroq, yangi kelib joylashgan hududda yer va yaylovlarnig yetshmasligi natijasida, ularnig ba’zi guruhlari Zarafshon vohasi (hozirgi Mitan) va Bulung‘ur rayonlari hamda janubiy rayonlar (Qashqadaryo va Surxondaryo) hududlariga borib joylashgan.

Buxoro xonligi hududiga kirib kelgan qoraqalpoqlar va xonlik va shu atrofda yashovchi aholi munosabatlari ko‘p ziddiyatli bo‘lmaganga o‘xshaydi. Sababi, qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi (keyin amirlik) hududlariga kelib joylashishi amirlikining (olinadigan soliqlar hisobiga) foydasiga bo‘lgan. Chunki qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va ular xonlikka zakot, yerdan foydalanganligi uchun esa xiroj va boshqa soliqlar to‘lab turgan. Shu bilan birga qoraqalpoqlarning kelib joylashgan hududlari mahalliy axoli yashaydigan qishloq va ovullardan uzoqda, asosan, daryo vohalari bo‘ylab joylashgan edi. Qoraqalpoq qabila boshliqlarning Buxoro xonligi siyosiy hayotidagi roli xakida ma’lumotlar kam. Biroq, qoraqalpoq oqsuyaklaridan mang‘it urug‘idan chiqqan bir necha vakillar amirdan boshqaruv apparatidagi to‘qsabo, muxtar kabi mansablarni olgan va Buxoro amiri lashkarlarida ham xizmat qilib, lashkarboshi lavozimlariga ko‘tarilgan.

Buxoro amirligida yashovchi qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida musulmon ro‘honiylarining o‘rni katta bo‘lgan va aholi oqsuyak va qoralarga bo‘lingan. Aholi ro‘honiylarga pul ko‘rinishida va narzu niyoz va fitr to‘lab turgan[3]. Xalq savdogar, sudxo‘r va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asoratga solingan. Bunday tabaqalar qoraqalpoqlarning Quyi va o‘rta Sirdaryo bo‘ylarida yashagan paytlaridayoq shakllanib boshlagan edi va amirlik hududiga kelganidan keyin sekin asta kuchaygan. Urug‘ning mulkdor tabaqa vakillari yer uchaskalari va ko‘plab chorva egalariga ega bo‘lib, ularni nazoratda saqlash uchun oddiy ahaoli vakillarni yollaganlar. Tarixiy yozma manbalarga qaraganda, Zarafshon vohasi qoraqalpoqlaridagi eng boy xo‘jliklarda 2000 boshgacha qo‘ylar bo‘lgan. Har bir urug‘da boylar bilan bir qatorda yersiz va chorva mollariga ega bo‘lmagan xo‘jaliklar mavjud bo‘lgan.

XIX asrning 60-70-yillarida Zarafshon vohasidagi yersiz aholi soni ayrim rayonlarda 25 % gacha yetgan. Kambag‘al qatlamlardan yersizlar Buxoro amirligida tobora ko‘payib borgan. Ularnig ko‘pchiligi yarimchi ko‘rinishida bo‘lib, ular boy xo‘jaliklarda ishlab bergani uchun 1/4 miqdorida haq olgan. Yarimchilar asosan boylarningg xo‘jaligida ekin tekinlarga qarash, chorvani boqish va dehqonchilik ishlari va boqa uy-ro‘zg‘or ishlariga qaragan. Yersiz aholining bir qismi yoki kamgina chorvasi bor kishilar boylarning molini boqish, baliq tutish, o‘tin yig‘ish, ko‘mir va tuz tayyorlash bilan shug‘ullangan.

Nurota va Konimex dashtlaridan ko‘chib kelgan qoraqalpoqlarning kichik bir guruhi boshqalarnikidan ancha farq qiladigan tabiiy sharoitlarda yashagan. Bu yerdagi dashtliklarda dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun sharoit yo‘q edi. Shuning uchun qoraqalpoqlarning bu kichik guruhi qo‘shni qozoqlarning ko‘chmanchi xo‘jaligini o‘zlashtirib, bu yerda asosan mayda chorva, shuningdek, tuya va ot boqishgan. Nurota, G‘ijduvon, Kenemeh bozorlarida o‘z mahsuloti va hunarmandchiligini, mo‘ynalarini sotgan, o‘zlariga yetmagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini xarid qilganlar. Qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi cho‘l hududlaridagi sahrolarda qozoqlar bilan yashab qolgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi tarzda yashaganlar.

Biroq, ular xonlik hududiga (asosan, qishlovlariga) kirib kelishi bilanoq, zakot to‘lashga majbur qilingan. Biroq, XVIII asr oxiriga kelib, amir Shohmurot tomonidan qoraqalpoqlarga boshqa soliqlardan tashqari qo‘sh puli solig‘i o‘rgantilgan. Bu soliq har 50 tanob yer uchun u yerdan foydalansa ham foydalanmasa ham to‘langan. Bu soliqni to‘lash majburiyati qoraqalpoqlarnig o‘troqlik va dehqonchilikka o‘tishini ma’lum darajada tezlashtirgan.[4] Zarafshon vohasida XVIII asr oxiridan boshlab yashab, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qoraqalpoqlarda shu yerdagi o‘zbek qabilalari to‘layotgan soliqlarni to‘lashi shart bo‘lgan Ular, g‘alla, sholi, tariq va makkajo‘xoridan olinadigan xiroj asosan, hosilning 1/3 qismi miqdorida bo‘lgan va ba’zida yarimigacha ham olingan. Bog‘ va ekinzorlardan olinadigan tanob puli (pul solig‘i), chorva mollari va hunarmandchilikdan 2,5 miqdorida zakot olingan.

XIX asrga kelib zakot asosiy soliqlardan biriga aylangan. Uning sababi, qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va bundan tashqari ularda hunarmandchilikning turli xil sohalari keng

taraqqiy etgan edi. To‘qima buyumlar (gilam, namat, olacha va boshqalar), yog‘ochsozlik, teriga ishlov berish kabi sohalar xo‘jalikda muhim o‘rin tutib, bu mahsulotlar atof hududdagi bozorlarga ham chiqarilgan. Ma’lumki, qadimdan O‘rta Osiyo xalqlarining xo‘jaligida xunarmandchilikning turli xisl sohalari juda qadimdan keng taraqqiy etgan. Ulur qatorida qoraqalpoq chorvador aholisi tomonidan teriga ishlov berish va undan mahsulot tayyorlash keng ommalashgan bo‘lgan[5]. Qoraqalpoq qabilalari hunarmandchiligida jun, teri va paxta, kabi xom ashyodan o‘z ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarish keng yoyilagn bo‘lgan. Hunarmandchilikning bu sohalari Miyonqol atroflarida nisbatan yaxshiroq rivojlangan edi. 1897 yilgi Rossiya imperiyasining aholini umumiy ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, Zarafshon vohasi qoraqalpoq aholisining faqat 5-6 % hunarmandchilikni u yoki bu sohasi bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Harbiy ishlar uchun askariy solig‘i (jul) va boshqa ko‘plab soliqlar mavjud bo‘lgan. Umuman olib qaraganda, soliqlar miqdori turli xil ko‘rinishda yig‘ilgan bo‘lib ular aholiga og‘ir yuk edi. Biroq, uni to‘lash shart bo‘lib, ular ko‘pincha zo‘ravonlik, jazolash va qiynoqlar hisobiga yig‘ib olingan. Amirlik soliq xodimlari (amin) va amir lashkarlari xalqdan yig‘ilgan soliqlar miqdorini hisoblashgan. Shu bilan birgalikda, mahalliy hokimlar amirdan oylik maosh olmagan va xalq hisobidan yashagan. Shuning uchun xalqdan imkon qadar, turli yo‘lar bilan ko‘proq soliq undirishga harakat qilingan.

Urush bo‘lmagan yillarda mahalliy boylar va o‘rnatilgan soliqlar halqni asoratga solib turgan. 1811-yil qoraqalpoklarning bir biyi XIX asrning boshlarida juda katta, hatto 500 dan ko‘p xo‘jalikni boshqargan edi. Lekin, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida eng keksa obro‘li biylar 100-250 xo‘jalikni boshqaradigan bo‘lib qoladi. Chunki,o‘sha davrga kelganda, qoraqalpoqlar bir tarafdan o‘z qabila boshliqlari – boylar, ro‘xoniylar va ikkinchi tomondan xonlik tomonidan solingan majburiyatlar asoratiga tushib, boshqa xalqlar kabi mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarishiga majbur bo‘lgan.

Bunday qo‘zg‘olonlardan 1687 yilda Miyonqoldagi qoraqalpoqlar va xitoy-qipchoqlar isyoni eslatiladi[6]. Ma’lumki, Buxoro amirligi hududi XIX asr birinchi choragida amir va uning amaldorlariga qarshi kurash maydoniga aylangan edi. Umumiy soliqlar va yig‘imlar hamda har xil harbiy majburiyatlar, doimiy urushlar aholini xonavayron qilgan. Amlokdorlarning o‘zboshimchaligi kuchayib borgan. 1821-1825 yillarda Zarafshon vodiysining o‘rta qismida (Miyonqolda) o‘zbek urug‘lari o‘rtasida qo‘zg‘olon ko‘tariladi[7]. Uning asosiy tashkilotchilari «yetti qabila» tarkibiga kiruvchi xitoy-qipchoqlar edilar. Ko‘tarilgan bu qo‘zg‘olonga tarixda xitoy-qipchoqlar nomi bilan bog‘lansada, unda ko‘plab qoraqalpoq qabila vakillari ham ishtirok etgan edilar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qoraqalpoq urug‘lari Zarafshon daryosi atroflariga ko‘chib kelgan vaqtlarida hali urug‘ qabilachilik tuzumida yashaganlar. Ular vohaga dastlab, bir-birlaridan alohida bo‘lib, chorva va dehqonchilik uchun qulay adir va to‘qaylar atrofi bo‘ylab joylashganlar. Ko‘chib o‘tish davrida qaroqalpoqlarning xo‘jaligida, ayniqsa boylari uchun, eng asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa chorvachilik edi. Qoraqalpoqlarning kelib joylashgan hududlari mahalliy axoli yashaydigan qishloq va ovullardan uzoqda, asosan, daryo vohalari bo‘ylab joylashgan edi. Qoraqalpoq qabila boshliqlarning Buxoro amirligida yashovchi qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida musulmon ro‘honiylarining o‘rni katta bo‘lgan va aholi oqsuyak va qoralarga bo‘lingan. XIX asrga kelib zakot asosiy soliqlardan biriga aylangan. Uning sababi, qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va bundan tashqari ularda hunarmandchilikning turli xil sohalari keng taraqqiy etgan edi. Bu davrga kelganda, qoraqalpoqlar bir tarafdan o‘z qabila boshliqlari – boylar, ro‘xoniylar va ikkinchi tomondan xonlik tomonidan solingan majburiyatlar asoratiga tushib, boshqa xalqlar kabi mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarishiga majbur bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Элмуродов Н. Зарафшон воҳаси ўзбек халқи этник гуруҳлари.–Самарқанд, 2008. –Б. 91.

2.Толстова Л.С. Жокаргы каракалпаклар... – Б. 62.

3.Турекеев Қ. Ж. Қорақалпоқларнинг мотам маросимларида магик тасаввурларнинг намоён бўлиши. O‘zbekiston etnologiyasi: an’analar va innovatsiyalar”. respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent 2022 .– B.43-47.

4.Толстова Л.С. Материалы этнографического обследования группы "каракалпак" Самаркандской области Узбекской ССР. – М., 1961, №3. – С. 39.

5.Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент.: Фан, 1974. – С. 212-213.

6.Иванов П.П. Восстание хитай-кипчаков в Бухарском ханстве в 1821-1825 гг. – М-Л. 1937.– С.8-10.

7.Пардаев К.К. Ўрта Зарафшон (Миёнқол) воҳасининг XIX – XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б.12-41.